

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
KREATIV FIKRLASHNING AHAMIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19187296>

Mamadaliyeva Barno O'ktamovna

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrası dotsenti, +99891120037 (aleksandrkolchak007@gmail.com)

Annotatsiya

Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirishda kreativ fikrlashning roli haqida fikr yuritilgan. Kreativ fikrlash o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi. Shu boisdan, ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlar, yondashuvlar va baholash tizimlari alohida o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: *kompetensiya, innovatsiya, kreativ fikrlash, muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish, interaktiv metodlar, divergent tafakkur, PISA tadqiqotlari.*

Аннотация

В этой статье рассматривается роль творческого мышления в повышении качества образования на основе интегративного подхода. Креативное мышление повышает интерес учащихся к познанию, учит принимать самостоятельные решения. Поэтому особое место в образовательном процессе занимают методы, подходы и системы оценки, направленные на развитие креативного мышления.

Ключевые слова: *компетентность, инновации, творческое мышление, проблемное обучение, проектное обучение, интерактивные методы, дивергентное мышление, исследования PISA.*

Annotation

This article reflects on the role of creative thinking in improving the quality of Education based on an integrative approach. Creative thinking increases students interest in knowledge, training them in independent decision-making. Therefore, a special place in the educational process is occupied by methods, approaches and assessment systems aimed at the development of creative thinking.

Keywords: *competence, innovation, creative thinking, problem teaching, project-based teaching, interactive methods, divergent thinking, PISA research.*

Kreativ fikrlash bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida asosiy kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. U nafaqat o'quvchilarni innovatsion fikrlashga undaydi, balki ularni muammolarni samarali hal qilish, tanqidiy fikrlash va o'z g'oyalarni erkin ifoda etishga tayyorlaydi. Psixologik yondashuvlarga ko'ra, kreativ fikrlash divergent tafakkur bilan bog'liq bo'lib, u ko'plab muqobil yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu yondashuv Torrance, Guilford, Wallas kabi mutaxassislar tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Kreativ fikrlash o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi. Shu boisdan, ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlar, yondashuvlar va baholash tizimlari alohida o'rin tutadi. O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Ta'lim muassasasida kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Ta'lim muassasasi yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy talantlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchining hayoli va qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi: ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari mazmunida ham. Kreativ fikrlash ham boshqa qobiliyatlardak maqsadli va amaliy bo'lishi mumkin. Bazi o'qituvchilar nazarida o'quvchini kreativ fikrlashini oshirish o'quv dasturidan tashqari boshqa faoliyat turiga jalb qilishdek ko'rinadi. Aslini olganda esa o'quvchilar mavjud hamma fanlar kesimida kreativ fikrlay olish qobiliyatlari hisobga olinadi. Kreativ fikrlashning afzal tomonlaridan yana biri o'quvchiga yodlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishiladi. PISA tadqiqotlari faqatgina 15 yoshli o'quvchilarning kreativ fikrlash jarayoniga ko'proq e'tibor qaratadi. Bu xalqaro tadqiqot faqatgina ijodkor o'quvchilarni ajratmasdan, balki o'quvchilarning fikrlashini orttirish hamda fikrini ifodalashda va bu kabi qobiliyatlarini o'qitish jarayoni maktab faoliyati yoki ta'limning boshqa xususiyatlari bilan qanchalik uzviylikini baholaydi. PISA tadqiqotlarining oldidagi asosiy ishi ta'lim sohasi va pedagogikada katta natijalarga erisha oladigan kreativ fikrlash ko'nikmasiga tegishli xalqaro darajadagi ma'lumotlar berishdan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki kreativ fikrlash ko'nikmasi ta'lim olish jarayonida shakllanishi, uning o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini o'qitish jarayonida kreativ fikrlashining imkoniyatlari aniq natijalarga olib keladi. Bu jarayonda o'quvchilarning o'zlashtirishidan kelib chiqqan holda, beriladigan topshiriqlar maktabda o'qitiladigan fanlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi, amaliy hamda test topshiriqlari sinfda yoki sinfdan tashqari bajariladigan topshiriqlarga yaqin oddiy va sodda bo'lishi kerak.

Ta'lim muassasasida o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Har qaysi boshqa ko'nikma kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va manzilli yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Ba'zi o'qituvchilarga o'quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish o'quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo'layotgandek tuyulishi mumkin. Aslida, o'quvchilar barcha fanlarda kreativ fikrlashi mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko'r-ko'rona yodlash o'rniga tadqiqot va ixtironi qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi mumkin. O'qituvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o'zlari ham o'quvchilarga fikrlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o'z navbatida, o'qituvchilarga ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodiy g'oyalar "inkubatsiya" bo'lishi uchun muayyan vaqt talab etishini anglashga yordam beradi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayoni biroz murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lishi mumkin. Lekin, buni samarali amalga oshirish uchun bir qator usullar ham mavjud.

Ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun bir qator metodlar mavjud. Masalan, muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish, interaktiv metodlar va guruhlarda ishlash orqali o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, tanqidiy tahlil qilish, ijodiy yechimlarni izlab topish ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda ularga ijodiy topshiriqlar berish, erkin

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

insho yozdirish, dramatik sahnalarni sahnalashtirish ham ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'qituvchining yondashuvi, berilgan topshiriqlarning xarakteri, hamda baholash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda kreativ fikrlashga asoslangan ta'lim modeli XXI asr uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Kreativ fikrlash" – I.S. Xotamov, M.K. Olimov O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022.
2. Pedagogika – R. Mavlonova, N. Vohidova, N. Rahmonqulova– Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2001.
3. Umumiy pedagogika – M. To'xtaxodjayeva va boshq.– Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2010.
4. Ta'lim texnologiyalari – N. Sayidahmedov– Toshkent: Moliya nashriyoti, 2003.
5. Pedagogik texnologiyalar .N.X.Avliyakov,N.N .Musayeva . Toshkent 2012.